_____________-sonli shartnomaga
7 - ilova

**Avariyaviy va texnologik bronni aniqlash bo'yicha**
**DALOLATNOMA**

Iste'molchining_________________________________________________
______________________ishtirokida tuzildi.

Yagona elektr energetikasi tizimida uzoq muddatli yoki qisqa muddatli quvvat tanqisligi yuzaga kelganda Iste'molchi quyidagilarni bajarishi kerak:

1. Uskuna yuklamasini texnologik bron darajasigacha pasaytirish:

| T/r | Texnologik broniga taalluqli sexlar va agregatlar nomi* | Ishda qoldirilgan yuklamalar quvvati (kVt) | Izoh |
|---|---|---|---|
| 1. | | | |
| 2. | | | |
| 3. | | | |
| 4. | | | |

Jami:________kVt

*a) *Barcha sexlar va agregatlar zudlik bilan o'chiriladi. O'chirilishi yaroqsiz mahsulot ishlab chiqarilishi, uskunaning buzilishi, portlash, yong'in, zaharlanish va boshqa baxtsiz hodisalarga olib keluvchi sexlar va agregatlar bundan mustasno.*

*b) Texnologik bronga shuningdek avariya broniga taalluqli sexlar va agregatlar ham kiradi (2-bandga qarang.)*

Texnologik bronni cheklash bosqichlari:
I bosqich ____________________ kVt; II bosqich ____________________ kVt;
III bosqich ____________________ kVt; IV bosqich ____________________ kVt.

2. __________ o'tganidan keyin sexlar va agregatlar avariya broni darajasigacha uzib quyiladi.

| T/r | Avariya broniga taalluqli sexlar va agregatlar nomi* | Ishda qoldirilgan yuklamalar quvvati (kVt) | Izoh |
|---|---|---|---|
| 1. | | | |
| 2. | | | |
| 3. | | | |
| 4. | | | |

Jami:________kVt.

* a) O'chirilishi suv ta'minoti, aloqa vositalari ishining to'xtashiga, isitish tizimining muzlab qolishiga olib keluvchi sexlar va agregatlar, hamda qo'riqlash yoritgichlari elektr tarmog'idan uzilmagan holda qoldiriladi.

b) Yong'inga qarshi zaxira nasoslar va boshqa yong'inga qarshi agregatlar avariya broniga kirmaydi (ushbu agregatlar, zaruratga qarab, oldindan Ta'minotchi korxona bilan kelishilgan holda ro'yxatga kiritilishi mumkin).

| Ta'minotchi korxona: | Iste'molchi: |
|---|---|
| M.O., imzo, lavozimi, F.I.SH. | M.O., imzo, lavozimi, F.I.SH. |



# "HUDUDIY ELEKTR TARMOQLARI" AJ
# "SIRDARYO HUDUDIY FILIALI"

# ULGURJI ISTE'MOLCHILAR UCHUN ELEKTR ENERGIYASI YETKAZIB BERISH SHARTNOMASI

**2023« ____ »01/96/SONLI**

Бандлик бош кармаси

tizimi iste'molchilarini to'liq uzib qo'yish va uzib qo'yiladigan quvvatni 5 navbatga bo'lish nazarda tutilishi lozim.

Elektr energiyasini cheklash va uzib qo'yish jadvallari elektr stansiyalari va elektr tarmoqlari uskunalarining yo'l qo'yib bo'lmaydigan sharoitlarda ishlashining oldini olish, yagona elektr energetika tizimining barqaror parallel ishlashini ta'minlash, avariyalar yuzaga kelishining oldini olish hamda iste'molchilarning tartibsiz uzib qo'yilishini bartaraf etish maqsadida yagona elektr energetika tizimida elektr energiyasi va quvvat tanqis bo'lgan hollarda tuziladi, bunday holatlarda Ta'minotchi korxona Iste'molchilarni ogohlantirmasdan cheklanishlar kiritishi mumkin.

6.3. Cheklash va uzib qo'yish jadvallarini amalga kiritish tartibi quyidagilar:

elektr energiyasi va quvvatni cheklash va uzib qo'yish jadvallari "O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" AJ rahbari farmoyishi bilan amalga kiritiladi. Dispetcherlik boshqaruvining barcha darajalarida elektr energiyasini cheklashni joriy etish farmoyishi operativ jurnalda cheklash hajmi, cheklash boshlanadigan va tugaydigan vaqti qayd etilgan holda beriladi;

hududiy elektr tarmoqlari iste'molchilarga keyingi sutkalarda elektr energiyasini cheklash jadvallarining amalga kiritilishi to'g'risida joriy sutkaning soat $14^{00}$ dan kechiktirmay, cheklash hajmi, cheklash boshlanadigan va tugaydigan vaqtini ko'rsatgan holda ma'lum qiladi.

Elektr energiyasini cheklash jadvallarini zudlik bilan joriy etish zarur bo'lganda, bu haqidagi bildirishnoma sutkaning vaqtidan qat'iy nazar, cheklashning amal qilishi boshlanishidan 1 soat oldin iste'molchilarga yetkaziladi.

Uzib qo'yish jadvallari iste'molchilar tomonidan hududiy elektr tarmoqlaridan uzib qo'yish jadvallari joriy etilishi to'g'risidagi bildirishnoma olingandan keyin darhol joriy etiladi.

Iste'molchilar cheklash va uzib qo'yish jadvaliga kiritilgan, shu jumladan uzluksiz ishlab chiqarish texnologik jarayoniga ega korxonalar, tashkilotlar va muassasalar *(cheklash va uzib qo'yilishi mumkin bo'lmagan obyektlardan tashqari)* cheklash va uzib qo'yish jadvallarining hududiy elektr tarmoqlari tomonidan ko'rsatilgan muddatda so'zsiz bajarilishini tashkil etishi shart. Aks holda, ular uzib qo'yish va cheklash jadvallari bajarilmaganligi tufayli yagona elektr energetika tizimi markazlaridan majburiy uzib qo'yish natijasida yuzaga keladigan oqibatlar uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

Hududiy elektr tarmoqlari elektr energiyasi va quvvatini cheklash jadvallarini amalga kiritish to'g'risidagi farmoyish iste'molchilar tomonidan bajarilmaganda, ularni ogohlantirgandan so'ng elektr energiyasi va quvvat iste'molining belgilangan darajada kamayishini ta'minlovchi miqdorda elektr energiyasi yetkazib berilishini majburiy ravishda cheklaydi.

Bu boradagi texnologik jarayonlar buzilishining oqibatlari uchun javobgarlik Iste'molchi rahbarlari zimmasiga yuklanadi.

6.4. Qoidalarda nazarda tutilmagan sabablarga ko'ra, Iste'molchilarni elektr energiyasidan o'chirganlik uchun hududiy elektr tarmoqlariga nisbatan qonunchilik hujjatlariga muvofiq Iqtisodiy choralar qo'llaniladi.

## VII. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLASHUV

7.1. Ushbu shartnomaning har bir tomoni o'ziga nisbatan qo'llaniladigan barcha, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlaridagi



Korrupsiyaga qarshi tegishli shartlar va talablarni tushunishi haqida bir-birini ishontiradi va ularga amal qilishini kafolatlaydi.

7.2. Iste'molchi ushbu shartnoma amalda bo'lgan butun davr mobaynida u *(shuningdek uning mansabdor shaxslari, direktori, xodimlari, agentlari va boshqa vakillari)* Ta'minotchi korxonaning manfaatlarida uning agenti yoki vakili sifatida harakat qilib, Ta'minotchi korxonaning hamda O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlarining Korrupsiyaga qarshi tegishli shartlari va talablariga qat'iy rioya etish majburiyatini oladi.

## VIII. YAKUNIY SHARTLAR

8.1. Shartnoma 2023 yil "7" 08 dan 2023 yil "31" 12 gacha bo'lgan muddatga tuzildi.

Shartnomaning amal qilish muddati tugaganda, tomonlardan biri uni uzaytirish yoki bekor qilish bo'yicha ariza bermagan bo'lsa, shartnoma keyingi har bir yilga uzaytirilgan hisoblanadi *(Byudjet tashkilotlari bundan mustasno)*. Ariza ushbu Shartnomaning amal qilish muddati tugashidan bir oy oldin taqdim etilishi lozim.

8.2. Shartnoma bir hil yuridik kuchga ega bo'lgan va tomonlarning har birida saqlanayotgan ikki *(Byudjet tashkilotlari uchun uch)* nushada tuzilgan. Shartnoma 24 betdan iborat va uning ilovalari uning ajralmas qismi hisoblanadi.

8.3. Tomonlarning birini tashabbusi bilan shartnomani muddatidan oldin bekor qilish, ikkinchi tomonni bekor qilish muddatidan o'ttiz kun oldin xabardor qilingan holda va o'zaro hisob-kitob qilishi sharti bilan bekor qilinishi mumkin. Bekor qilish to'g'risida habarnoma yozma ravishda yuboriladi.

8.4. Barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular faqat yozma ravishda amalga oshirilib, tomonlarning vakolatli shaxslar tomonidan imzolangan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.

8.5. Ushbu Shartnoma talablarida nazarda tutilmagan va tutilmagan holatlar bo'yicha nizolar kelib chiqqan taqdirda qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq tartibga solinadi.

**Iste'molchilarga ogohlantirish !**

Umumiy foydalanishdagi elektr tarmoqlariga o'zboshimchalik bilan ulanish yoki ulardan foydalanish qoidalarini boshqacha tarzda buzish yoxud elektr energiyasini hisobga olish priborlariga, shu jumladan ularning plombalariga qasddan shikast yetkazish yoki bunday hisobga olish priborlarining ko'rsatkichlarini o'zgartirish maqsadida ularga tashqaridan aralashish, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 101 hamda Jinoyat kodeksining $185^2$ -moddalariga asosan javobgarlikka tortilishiga sabab bo'ladi.

## VII. TOMONLARNING MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI

**ISTE'MOLCHI:**

Yuridik manzili ____________________

Pochta manzili ____________________ B __________

Hisob raqami: ____________________

Bank kodi (MFO) __________ STIR (INN) __________

[Res]publika va mahalliy byudjetdan moliyalashtiriladigan Iste'molchilar uchun:

Byudjet fondining hisob-raqami: 100021860244017109120091001

Bank kodi (MFO) 00014 STIR (INN) 201775991

Byudjetdan tashqari fondning hisob-raqami ____
Bank kodi (MFO) 00014 STIR (INN) 201775991
QQS to'lovchining kodi ____
Telefonlar 67 2256508 Faks: ____ e.mail: ____
(Iste'molchining, shu jumladan rahbarining xohishiga ko'ra uyali, faks telefonlari, elektron manzil yoziladi)
Kadastr raqami ____

**Statistik kodlar:**
IFUT (OKED) ____
DBIBT (SOOGU) ____
MHOBT (SOATO) ____
(KFS) ____
TSHK (KOPF) ____
•

**TA'MINOTCHI KORXONA:**
Pochta manzili ____
Hisobraqami 22636000505063172714
Bank kodi (MFO) 00440 STIR (INN) 306350099
QQS to'lovchining kodi ____
***Telefonlar:*** ____ ***Faks:*** ____
*Statistik kodlar:*
DBIBT (SOOGU) ____
MHOBT (SOATO) ____

**Ta'minotchi korxona:** M.O'. imzo, lavozimi, F.I.SH.

**Iste'molchi:** M.O'. imzo, lavozimi, F.I.SH.

YURISTKONSULT XULOSASI:

Ta'minotchi korxona yuristkonsulti:

____

Yuristkonsult: A.A. Mamatxonov (imzo)

YURISTKONSULT XULOSASI:

Iste'molchi yuristkonsulti:

____

• Yuristkonsult: ____



____-sonli shartnomaga
1 – ilova

**Yetkazib beriladigan energiya hajmi**

1. Tarif guruhi 11
2. Faoliyat turi Savdo
3. Iste'molchi elektr qurilmalarining o'rnatilgan quvvati: ____ kVA (kVt)
4. Texnik shart bo'yicha ruxsat berilgan quvvat ____ kVt
5. Elektr ta'minoti ishonchliligi bo'yicha toifasi (loyiha bo'yicha) III
   • Elektr ta'minoti ishonchliligi bo'yicha toifasi (amalda) III
6. Hisob-kitob turi: ____

tarif turi tabaqalashtirilgan, bir stavkali yoki avvaliga tenglashtirilgan (keraklisi to'liq ko'rsatiladi)

| miqdori | Energiya hajmi ming kVt*soat | Shu jumladan, tarif guruhlari bo'yicha | | | | Reaktiv energiyaning iqtisodiy miqdori |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | I | II | III | IV | ming kVar*soat |
| Yil, jami | 34214 | | | | | |
| Yanvar | — | | | | | |
| Fevral | — | | | | | |
| Mart | — | | | | | |
| Aprel | — | | | | | |
| May | — | | | | | |
| Iyun | — | | | | | |
| Iyul | — | | | | | |
| Avgust | 23000 | | | | | |
| Sentabr | | | | | | |
| Oktabr | 11214 | | | | | |
| Noyabr | — | | | | | |
| Dekabr | — | | | | | |

Tashkilot kuniga foydalanadi ____ soat. oyga ____ kun
Umumiy yuklamaga nisbatan smenalar bo'yicha yuklanish % hisobida I __ II __, III __

**Ta'minotchi korxona:** M.O'. imzo, lavozimi, F.I.SH.

**Iste'molchi:** M.O'. imzo, lavozimi, F.I.SH.

_______________- sonli shartnomaga
2 – ilova

**Energiyani hisobga olish priborlari o'rnatilgan joylar va ularning tavsiflari**

| Iste'molchining (subiste'molchining) hisobga olish pribori o'rnatilgan joylari, turi va kuchlanish toifasi (kV) | Hisobga olish pribori turi (aktiv), (nominal toki) | Hisobga olish pribori raqami | Hisobga olish pribori klemma qopqog'idagi plombaning raqami | O'lchov transformatorlarining transformatsiya koeffitsiyenti | | Hisob-kitob koeffitsiyenti | Hisobga olish priborining shartnoma tuzilgan kundagi ko'rsatkichlari | Tarif turi so'm/ 1 kVt*soat |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | Tok | Kuchlanish | | | |
| [illegible] | | | | | | | | 1000 |

**Ta'minotchi korxona:**

_______________
_______________
M.O'. imzo, lavozimi, F.I.SH

**Iste'molchi:**

_______________
_______________
M.O'. imzo, lavozimi, F.I.SH

_______________-sonli shartnomaga
3 – ilova

**Tomonlar elektr tarmoqlarining balans mansubligi va ekspluatatsiya qilish bo'yicha mas'ullik chegarasi dalolatnomasi**

Hisobga olish pribori davlat raqami ___________ tok transformatori _____kuchlanish transformatori _____jami koeffitsiyent_______ ulangan quvvati_______ kVt



Hisobga olish pribori o'rnatilgan manzil: _______________________________________________

_______________________________________________
*shahar,qfy,mfy,ko'cha nomi, uy raqami*

1. Tarif guruhi _____ Faoliyat turi _______________________
2. Tarif guruhi _____ Faoliyat turi _______________________

1. Iste'molchining balansida quyidagi elektr qurilmalar mavjud:

a) havo elektr tarmog'i _______________________________________

b) kabel elektr tarmog'i _______________________________________

v) podstansiyalar, transformator podstansiyalari TP raqami_____, _______kVA

2. Iste'molchi va Ta'minotchi korxona o'rtasidagi elektr tarmoqlarning balans bo'yicha mansublik chegarasi_______________________________________

Ulardan quyidagilarga:
a) барча ички электр тармоқлар
_______________ xizmat ko'rsatish iste'molchi xodimlari tomonidan,
b)_______________________________________
_______________________________________ Iste'molchi bilan 202__ yil _________ sanada tuzilgan _____-conli Texnik xizmat ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma asosida Ta'minotchi korxona tomonidan xizmat ko'rsatiladi. Texnik xizmat ko'rsatish shartnomasi tuzilmasa Ta'minotchi korxona tomonidan xizmat ko'rsatilmaydi.

4. Elektr qurilmalarning holati va ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha javobgarlik chegarasi quyidagicha belgilandi: _______________________________________

**Ta'minotchi korxona:**

_______________
M.O'. imzo, lavozimi, F.I.SH.

**Iste'molchi:**

_______________
M.O'. imzo, lavozimi, F.I.SH